

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

EV7125018880

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Shaxrisabz tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi va "SHAXRISABZLOYIHA" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'rtasida tuzilgan loyiha-smeta va qidiruv ishlari bajarish shartnomasi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Shaxrisabz tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 24.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Shaxrisabz tuman  
yuridik markazi  
markaz rahbari:**



**F.T.G'ANIYEV**

27.10.2022





27«10»2022 yil.

218-4-67-OB/2022-son

## LOYIHA-SMETA VA QIDIRUV ISHLARI BAJARISH UCHUN SHARTNOMASI

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan Shaxrisabz tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi **J.N.Turdiyev** bir tomondan va ikkinchi tomondan keyingi o'rinlarda Bajaruvchi deb ataluvchi "SHAXRISABZLOYIHA" MCH nomidan ish yurituvchi **N.Davlatova** o'rtasida, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda quyidagi shartnomani tuzdilar:

### 1. Shartnoma predmeti

1.1. Buyurtmachi, Shaxrisabz tuman **Qo'rg'ondektor qishlog'iga toza ichimlik suvi olib kelish** ishlari uchun loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash va tayyorlangan loyiha-smeta xujjatlariga ekspertiza xulosasi olish ishlarini topshiradi, Bajaruvchi esa o'z zimmasiga oladi.

### 2. Shartnoma baxosi va to'lovlar koidalari

2.1. Ishlarni amalga oshirishning umumiy baxosi **37 500 000** (O'ttiz etti million besh yuz ming) so'mni tashkil qiladi va mazkur shartnomaning 2-ilovasidagi loyixaga xujjatlarini bajarish va moliyalashtirish jadvaliga muvofiq bajariladi.

2.2. Buyurtmachi shartnomani G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng shartnomaning belgilangan baxosining 30% miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

2.3. Ishlar qiymatini kupaytirishga yengib bulmaydigan kuch (fars-major) xolatlari sabab bulganda yoki ishlar-xajmi Buyurtmachi tomonidan uzgartirilganda shartnoma baxosi uzgartirilishi mumkin.

2.4. Xar bir bosqichda bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

2.5. Buyurtmachi ishlarni topshirish-kabul kilish oraliq dalolatnomalari imzolangandan so'ng 5 bank kuni mobaynida Bajaruvchiga xaq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

2.6. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:



ishlar qiymatini kupaytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-majbo xolatlari sabab bo'lganda;

ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

### **3. Tomonlar majburiyatlari**

**3.1** Bajaruvchi ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, Buyurtmachi bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

**3.2** Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni Bajaruvchiga taqdim qiladi.

**3.3** Buyurtmachi shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan xajm va shartlarga muvofik bajarilishida Bajaruvchiga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, Bajaruvchining roziligisiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

**3.4** Buyurtmachi tomonidan avans to'lovlari o'z vaqtida o'tkazilmagan xolda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni Bajaruvchining talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati xam avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

**3.5** Ushbu shartnoma buyicha Bajaruvchi o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z xisobidan qaytadan bajaradi.

### **4 Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi**

**4. 1** Ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi Buyurtmachiga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

**4.2** Buyurtmachi ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi olgandan so'ng 10 kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Bajaruvchiga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni kabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

Agar Buyurtmachi ishlarni kabul qilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida Bajaruvchiga kamchiliklar ko'rsatilgan ishlarni qabul qilmaslik rad javobini yubormasa, ishlar qabul qilingan xisoblanadi va bunday xolatda Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini Bajaruvchiga qaytarishi shart.

**4.3** Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan xolda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan xolda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

**4.4** Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofik emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish



maksadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

**4.5** Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish tug'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro xisob-kitob qilish vaqti xisoblanadi.

**4.6** Lozim topilgan xollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

### **5. Konfidensial ma'lumotlarini ximoyalash**

**5.1** Ishlar bajarilishi davrida Bajaruvchi o'zi konfidensial xisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan xollarda ularni ximoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

## **6. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari**

**6.1** Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar kisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchuy javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

**6.2** Agar yengib bulmaydigan kuch xolatlari yoki ularning okibatlarini bir oydan kup vaktga chuzilsa, u xolda Buyurtmachi va Bajaruvchi ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rilishini muxokama kiladilar.

**6.3** Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

**Qo'shimcha shartlar 7.1** Bajaruvchi loyixani muddatidan oldin bajargan xolda, Buyurtmachi uni mazkur shartnomaning 4-moddasiga asosan qabul qiladi va to'la to'lovni amalga oshiradi.

**7.2** Xar bir obekt (Avtomobil yul) uchun Nuksonlar kaydnomasini Buyurtmachi tomonidan bajaruvchi ishtirokida aloxida ishlab chiqiladi xamda Bajaruvchiga topshiriladi.

**7.3.** Uzaro muloqat yo'li bilan xal qilinmagan muammolar konun xujjatlarida o'rnatilgan tartibda xal qilinadi.

**7.4** Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda uzgartirishlar va ko'shimchalar kiritilishi mumkin.

**7.5** Bajaruvchi mazkur shartnomada kursatilgan ishlarni bajarish vaktida uz imkoniyatlaridan kelib chikib, Buyurtmachini xabardor kilmagan xolda



uchunchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish xukukiga ega.

**7.6** Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti buyicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va Bajaruvchining o'zbekiston buyicha bajargan ishlariga nisbatan qullaniladi.

**7.7** Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan uzaro muzokara yuli bilan xal etiladi.

Kelishuvga kelinmagan takdirida tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar iqtisodiy sudda e'tiroz tartibiga rioya qilgan xolda, kurib chikiladi. E'tirozlar yozma ravishda takdim kilinishi kerak va ularni kurib chikish muddati e'tiroz bildirilgan tomon olganidan keyin 1 (bir) oy muddatni tashkil etadi. Mazkur shartnoma buyicha nizo kelib chikkan xollarda konunda belgilangan tartibda xal kilinadi.

**7.8** Buyurtmachi tomonidan dastlabki tulov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi shartnoma narxining 20 foizidan oshmasligi lozim.

**7.9** Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi shartnoma narxining 20 foizidan oshmasligi lozim.

**7.10** Agar Buyurtmachining mazkur shartnoma tuzilgan kun xolatiga avvalgi shartnomalar buyicha Bajaruvchi oldida karzdorligi bulsa, Bajaruvchi ushbu shartnomaga asosan tulangan pul mablaglaridan eng avvalo karzdorlikni ushlab kolishga va karzdorlik yopilgandan keyin kolgan mablaglarni ushbu shartnoma buyicha xisobga olishga xakli.

**7.11** Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi Uzbekiston Respublikasining amaldagi konun xujjatlariga, xsusan Uzbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksiga, «Xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi tugrisidagi Uzbekiston Respublikasining konuniga muvofik belgilanadi.

**7.12.** Buyurtmachining suroviga asosan zarur xollarda Joriy ta'mirlash ishlari smeta xujjatlariga uzgartirishlar kiritilishi mumkin.

**7.13.** Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- \* Shartnoma baxosini kelishuv bayonnomasi (1- ilova)
- \* Smeta xisobi (2-ilova)
- \* Bajarish va moliyalashtirish jadvali (3- ilova)

**7.14.** To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.




7.15. Ushbu shartnoma uzbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

7.16. Shartnoma amal kilish muddati 31.12.2022 yilgacha

### 8. Tomonlarning manzili va hisob raqamlari

«Buyurtmachi»	«Ish bajaruvchi»
Shaxrisabz TUMAN HOKIMLIGI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	"SHAXRISABZLOYIHA" MCH
Manzili: Shaxrisabz shahri Aspijallob ko'chasi 76-uy	MANZIL: <i>Shaxrisabz tumani Beshkapa q.</i>
Tel. Faks +99897-384 12 00	Tel: +99891257-30-81
Shv\x 401722860102457065200110006	<i>Ipak Yo'li Banki Shaxrisabz filiali</i> XR 2020 8000 2043 5432 4001
Budjetdan mablag oluvchi STIR 206 933 094	INN: 205 233 254 OKED: _____
OKONX: 90211 MFO:00014 Bank:Markaziy BBXKKM	OKONX: _____ MFO:01048
«Shaxrisabz tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i» :- J.Turdiev	"SHAXRISABZLOYIHA" MCH boshlig'i: _____ N.Davlatova

	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	JAMSHID TURDIYEV NE'MATULLAYEVICH
	Imzolangan sana	27.10.2022 10:25
	Hujjat kodi	BW8212425645
	Hulosa kodi	EV7125018880